

“ ISTIQBOL”
gazetasiga 2022-yil uchun obuna

Sh A R T N O M A S I № 110

“ 8.01 ” 2022-yil

(byudjet tashkilot ustavi) Asosida ish ko'ruvchi, keyinchalik "Tashkilot" deb yuritiluvchi

(tashkilot nomi)

nomidan tashkilot boshlig'i _____

(F.I.O.)

bir tomondan va ustav asosida ish ko'ruvchi, keyinchalik "Bajaruvchi" deb yuritiluvchi Zangiota tumani "Istiqbol" gazetasi muharriri v/b Sharipova D. T. ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar.

1. SHARTNOMA MAVZUSI

1.1. Mazkur shartnoma bo'yicha "Bajaruvchi" "Tashkilot"ga obuna "Istiqbol" gazetasiga rasmiylashtirish (keyingi o'rinlarda "Xizmatlar" deb yuritiladi), gazetani davriy chiqishi belgilangan muddatlarda, "Tashkilot" ushbu "Xizmatlar"ni qabul qilish va qiymatini to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi. 2022 yil obunasi uchun.

2. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

2.1. "Tashkilot"ning huquqlari:

"Bajaruvchi"dan "Xizmatlar" Tashkilotning hisobiga transportda tashilganda transport xarajatlarini qoplashni talab qilish;

"Bajaruvchi"dan mazkur shartnomaga muvofiq yetkazib beriladigan obuna nashrlarini buyurtmanomaga muvofiq tegishli sifatga ega bo'lgan "Xizmatlar" ko'rsatilishini talab qilish;

"Xizmatlar"ning kamchiliklari bepul bartaraf etilishini bahosining mutanosib tarzda kamaytirilishini talab qilish;

Shartnoma shartlari bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi natijasida yetkazilgan zarar qoplanishini "Bajaruvchi"dan talab qilish.

2.2. "Tashkilot"ning majburiyatlari.

o'z buyurtmanomasi bo'yicha yetkazib berilgan obuna nashrlarini mazkur shartnomaga muvofiq qabul qilib olish; yetkazib berilgan obuna nashrlari uchun mazkur shartnomaning 3.1-bandida ko'rsatilgan narx bo'yicha oldindan 100 (yuz) foiz to'lovni amalga oshirish.

2.3. "Bajaruvchi" quyidagi huquqlarga ega:

Yetkazib beriladigan obuna nashrlari uchun oldindan haq to'lanishini va amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va hajmda uzil-kesil hisob-kitob qilinishini talab qilish;

Berilgan buyurtmaga muvofiq yetkazib berilgan obuna nashrlarini qabul qilish asossiz rad etilishi natijasida yetkazilgan zarar qoplanishini "Tashkilot"dan talab qilish.

2.4. "Bajaruvchi" quyidagilarga majbur:

"Tashkilot"ga obuna nashrlarini mazkur shartnomaga muvofiq belgilangan muddatlarda, sifat va miqdorda yetkazib berish;

"Tashkilot" buyurtmasida belgilangan obuna nashrlarini o'z vaqtida yetkazib berilmaganligi oqibatida "Tashkilot"ga yetkazilgan zararni to'lab berish.

3. SHARTNOMANING BAHOSI VA HISOB - KITOB TARTIBI

3.1. Mazkur shartnomaning bahosi _____

(summa raqamlar va harflar bilan yoziladi)

so'mni tashkil etadi. Yetkazib beriladigan obuna nashrlarining ro'yxati va umumiy baxosi mazkur shartnomada ilovada ko'rsatilgan.

"Tashkilot" yetkazib beriladigan obuna summasining 100 (yuz) foizi miqdorida oldindan haq to'laydi.

Yetkazib berilgan obuna nashri uchun to'lov bankdan pul o'tkazish yo'li bilan (naqd pulsiz) tartibda hisob-kitob qilinadi.

4. SHARTNOMANING BAJARILISHI

4.1. Shartnoma mazkur shartnoma va qonun hujjatlari shartlari va talablariga muvofiq zarur tarzda bajarilishi kerak. Agar tomonlar o'z zimmalariga qabul qilingan barcha majburiyatlar bajarilishini ta'minlansa, shartnoma bajarilgan deb hisoblanadi.

4.2. Shartnoma bajarilishini bir tomonlama rad etishga yoki shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida belgilangan hollar bundan mustasno.

4.3. Obuna nashrlarini qabul qilish-topshirish dalolatnomalari tuzilgan sana shartnomalar bo'yicha majburiyatlar bajarilgan sana deb hisoblanadi. Hisob-kitob hujjatida bank muassasasi shtampida ko'rsatilgan sana ko'rsatiladigan obuna xizmatlariga haq to'lash bo'yicha "Tashkilot" majburiyatlari bajarilgan sana deb hisoblanadi.

5. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Tovarlarini yetkazib berish muddatlari kechiktirib yuborilgan, to'liq yetkazib berilmagan, ishlar bajarilmagan yoki xizmatlar ko'rsatilmagan xollarda, tovar yetkazib beruvchi (Bajaruvchi) sotib oluvchiga (Obunachiga) kechiktirilgan xar bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0.5 foiz miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy

summasi yetkazib berilmagan tovarlar, bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar baxosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

5.2. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni tovarlarni yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to'liq yetkazib bermaslik, ishlarni bajarmaslik yoki xizmatlarni ko'rsatmaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etilmaydi.

5.3. Agar yetkazib berilgan obuna nashrlarining davriyligi, sifati, assortimenti standart, texnik shartlar talablariga, namunalarga (etalonlarga) yoki shartnomada belgilangan boshqa shartlarga javob bermagan taqdirda, aybdor tomon yetkazib berilgan, sifati zarur darajada bo'lmagan obuna nashrlari qiymatining 20 foizi miqdorida jarima to'laydi.

5.4. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan tomonlarning javobgarligi chora-tadbirlari fuqarolik qonunchiligi normalariga muvofiq qo'llaniladi.

6. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

6.1. Kelishmovchiliklar va nizoli masalalar kelib chiqqan taqdirda, tomonlar, qoidaga ko'ra, mustaqil ravishda ularni sudgacha hal etish choralarini ko'radilar.

6.2. Tomonlar kelishmovchiliklar va nizolarni hal etish uchun bevosita sudga murojaat qilishga haqlidir.

7. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

7.1. Mazkur shartnoma mazkur shartnomaning oxirgi bandiga muvofiq ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab kuchga kiradi va tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajargunga qadar 20 ___yil ___gacha amal kiladi.

7.2. Tomonlar o'rtasidagi munosabatlar ular tomonidan mazkur shartnomaning barcha shartlari bajarilgan va hisob-kitob to'liq tugallangan taqdirda to'xtatiladi.

8. YAKUNIY QOIDALAR

Mazkur shartnoma tomonlarning kelishuviga ko'ra yoki boshqa tomon shartnoma shartlarini jiddiy ravishda buzgan taqdirda, tomonlardan birining talabi bo'yicha sud tartibida bekor qilishini mumkin.

8.2. Mazkur shartnoma tomonlarning har biri 2 nusxada tuziladi. Shartnomaning barcha nusxalari teng yuridik kuchga egadir.

8.3. Mazkur shartnoma, unga o'zgartirishlar (qo'shimchalar) "Tashkilot" joylashgan joy bo'yicha G'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin bajarilishi kerak.

20 ___yil ___dagi ___son shartnomaga
S P E S I F I K A T S I Y A

No	Mahsulot nomi	Soni	Davriyligi	Narxi	Summa
1.	Istiqbol	30	1 yillik	160 000	4 800 000

Tomonlarning manzili va rekvizitlari:

"BAJARUVCHI" "ISTIQBOL» GAZETASI TAHRIRIYATI Manzil: Zangiota tumani, Eshonguzar qo'rg'oni Tuman hokimligi binosi. h/r 2021 0000 6001 9088 6001 CHEKI SAVDOGAR ATB Zangiota filiali MFO: 00414 STIR: 200580484 OKED 87100 Bosh ofis: +99-272-88-31 MUHARRIR V/B: _____ D.SHARIPOVA M.O'. _____	"OBUNACHI" "SAFFO OBI HAYOT"
	Manzil: Toshkent sh., Yunusobod t-ni, Bog'ishamol ko'chasi, 151-uy.
	sh.h/r: H/r: 2020 8000 1046 2042 4001
	Bank: ATIB "IPOTEKA BANK"
	h/r: Toshkent shahar Yunusobod filial
	MFO: MFO: 00 837 INN: 300 472 766
	OKED kodi: OKED: 36 000
	STIR: Tel.: 262-75-18 Faks: 289-13-63
	Telefon: _____
	Rahbar: _____
M.O'. _____	

Yurist xulosasi: _____

Ikki tomonlama tuzilayotgan mazkur shartnoma O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik talablariga mos keladi.